

Date: 23rd November-2025

INGLIZ TILI GRAMMATIKASIDAGI O'TIMLI VA O'TIMSIZ FE'LLARNING QIYOSIY TAHLILI

Dilnavoxon Mamatova Sayxon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Angren xorijiy tillar fakulteti, Ingliz filologiyasi talabasi

Ilmiy rahbar: **Ixtiyor Bazarov**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasidagi o'timli va o'timsiz fe'llarning mohiyati, ularning grammatikada foydalanishi hamda bir-biridan farqlovchi belgilar ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'timli fe'llarning mazmuniy va grammatik xususiyatlari, o'timsiz fe'llarning mustaqil ma'nosi va gaplardagi o'rni, ularning qiyosiy tahlili, o'rganuvchilar tomonidan qilinadigan ba'zi xatolar, ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'timli fe'llar, o'timsiz fe'llar, obyekt, subyekt, to'ldiruvchi, qiyosiy tahlil, tafovut

KIRISH. Til - insonlar o'rtasidagi muloqotda muhim ahamiyatga ega. Grammatika esa har bir tilning poydevorini tashkil etadi. Grammatika so'zlovchi va yozuvchiga o'z fikrlarini aniq ifodalash, ma'noni to'g'ri yetkazish imkonini beradi. Ayniqsa, grammatikada fe'llar (verbs) eng faol so'z turkumi hisoblanadi va ular turlicha tavsiflanadi. Masalan: zamon (tense), nisbat (aspect), o'timlilik (transitivity) va o'timsizlik (intransitivity) Ular orasidagi eng muhim farqlardan biri - o'timli va o'timsiz fe'llar o'rtasidagi tafovutdir. Ushbu maqola ingliz tili grammatikasidagi o'timli va o'timsiz fe'llarning asosiy farqlarini o'rganishdan iborat. Maqolada, ushbu fe'l turlarining ta'rifi, grammatik tuzilishi va kontekstdagi misollar tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tili o'rganuvchilari tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar ham ko'rsatilib, ularni to'g'rilash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

ASOSIY QISM

1. O'timli fe'llarning mazmuniy va grammatik xususiyatlari

O'timli fe'llar biror harakatning ma'nosini aniq ifodalash uchun obyektga, ya'ni to'ldiruvchiga ehtiyoj sezadigan fe'llardir. Bu fe'llar doimo biror narsa yoki shaxsga qaratilgan bo'ladi. Masalan: "She opened the door" (U eshikni ochdi) "opened" fe'li "door" (noun=ot) obyekt bilan to'liq va tushunarli ma'noga ega bo'ladi. Shuningdek, o'timli fe'llar gapning sintaktik tuzilishini boyitish uchun xizmat qiladi. Agarda o'timli fe'llardan keyin obyekt keltirilmasa, gapning ma'nosi to'liq bo'lmaydi. Misol: " Tomas Idison invented" (Tomas Idison kashf qilgan) albatta, bunday holatda "nimani kashf qilgan?" degan savol tug'iladi. Bunday paytda gapning to'liq mazmunini anglatish uchun o'timli fe'lga obyekt yordamga keladi: "Tomas Idison invented the electron bulb" (Tomas Idison elektr lampochkasini kashf qilgan).

2. O'timsiz fe'llarning mustaqil ma'nosi va gaplardagi o'rni



Date: 23rd November-2025

O'timsiz fe'llar o'z ma'nosini obyektisiz ifodalovchi fe'llardir. Bu fe'llar biror predmet yoki shaxsga qaratilmagan bo'ladi, balki harakatning o'zini bildiradi. Masalan: "The accident happened" (Baxtsiz hodisa sodir bo'ldi) " He arrived" (U yetib keldi) gaplarida fe' llar hech qanday obyekt bilan bog'lanmagan, biroq fikr to'liq ifodalangan. O'zbek olimi M. G'aprov o'timsiz fe'llar haqida shunday yozadi: "Bu fe'llar o'z harakati bilan tugallanadi, ularning ma'nosini ochish uchun to'ldiruvchi talab qilinmaydi. Misol:" He ran " (U yugurdi) gapida harakat o'zida tugaydi, bu fe' lining o'timsizligini ko'rsatadi. O'timsiz fe'llar tilda mustaqil holatda fikr ifodalash, tavsiflash yoki voqea-hodisani bayon qilishda keng qo'llanadi. Shuningdek, Raymond Murphy (English grammar in Use, 5th Edition) ta'kidlashicha o'timsiz fe'llar no object verbs sifatida ham ataladi. Ularning harakati "tugallangan" yoki "ichki holatda sodir bo'ladigan" jarayonni ifodalaydi. O'zbek tilida ham o'timsiz fe'llar shunga o'xshash grammatik xususiyatga ega. Ular tushum kelishigidagi so'z bn bog'lanmaydi, ya'ni to'ldiruvchisiz ishlatiladi.

3. O'timli va o'timsiz fe'llarning qiyosiy tahlili va amaliy ahamiyati

O'timli va o'timsiz fe'llarni o'zaro taqqoslash ularning sintaktik vazifasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ikkala tur ham fe'lning gapdagi o'rnini belgilaydi, biroq ularning gapdagi grammatik munosabatlari farqlanadi. Masalan: "The changed the plan" (o'timli), "The weather changed" (o'timsiz) gaplari change fe'lining ikki xil shaklda ishlatilishini ko'rsatadi. Yuqoridagi misollar o'quvchiga fe'lning ma'no ko'lamini anglashda yordam beradi. O'zbek tilidagi " U eshikni ochdi" va "Eshik ochildi" kabi gaplar ham shunga o'xshash tuzilmani aks ettiradi. Shunday qilib, transitivity va intransitivity hodisasi ikki til o'rtasidagi sintaktik va semantik mosliklarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv nafaqat grammatikani o'rganishda, balki tarjima, yozma va og'zaki nutqni to'g'ri shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

4. O'quvchilar tomonidan o'tuvchi va o'timsiz fe'llar bo'yicha yo'l qo'yiladigan xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Ingliz tili grammatikasini o'rganish jarayonida o'tuvchi va o'timsiz fe'llarni farqlash ba'zi o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Buning sabablari bir necha omillar bilan izohlanadi: birinchidan, ingliz va o'zbek tillarining tuzilma farqlari; ikkinchidan, ayrim fe'llarning har ikki turda ishlatilish imkoniyati. Shuning uchun o'rganuvchilar ko'pincha grammatik jihatdan xato gap tuzadilar yoki fe'lni kontekstdan noto'g'ri talqin qiladilar. Birinchi turdagi keng tarqalgan xatolardan biri - o'timli fe'llarda obyektни tushirib qoldirishdir. Masalan: " She explained very well" gapida "explained" fe'li o'timli fe'l bo'lib, u oldidan obyekt talab qiladi: " She explained the rule very well". Ikkinchi tarqalgan xato esa, o'timsiz fe'llarga obyekt qo'shishdir. Misol uchun: "He arrived the station early" shakli grammatik jihatdan noto'g'ri, chunki "arrive" fe'li o'timsiz fe'l'dir. To'g'ri shakli: " He arrived at the station early". But holatda obyekt o'rnida predlogli birikma ishlatilishi kerak. Amaliy jihatdan o'timli va o'timsiz fe'llar bo'yicha xatoliklarni va kamchiliklarni tuzatish uchun kontekstual o'rganish - ya'ni bu fe'llarni matn ichida, misollar yordamida, dialoglar yoki nutq namunalariida o'rganish tavsiya etiladi.



Date: 23rd November-2025

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tili grammatikasida o'timli va o'timsiz fe'llar o'rtasidagi tafovutni to'g'ri anglash tilni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. O'timli fe'llar har doim to'ldiruvchini talab qilishi, o'timsiz fe'llar esa bunday talablarga ega emasligi ularning grammatik xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu farqni anglash, so'z birikmalari, gap tuzilmasi hamda nutqdagi mazmunning aniqligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qiyosiy tahlil natijasida ma'lum bo'ldiki, o'timli fe'llar ingliz tilida harakatning obyektga yo'naltirilganligini ifodalasa, o'timsiz fe'llar esa holat yoki harakatning yakunlanmaganini yoki subyekt doirasida kechishini ifodalaydi. Shunday ekan, o'timli va o'timsiz fe'llarni chuqur o'rganish nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashni, balki ingliz tilida tabiiy, mantiqiy va ifodali nutq qilishni ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shahboz Toshpo'latov " Step by step" [Regbooks nashriyoti-2020]
2. Muhammad G'apporov, Robiya Qosimova " Ingliz tili grammatikasi" 2010
3. Raymond Murphy "English Grammar In Use" (5th Edition) Cambridge University Press 2019
4. Michael Swan "Practical English Usage" (4th Edition) Oxford University Press 2016

